

PAPER

YOSHLARNING IJTIMOIY FAOLLIGINI OSHIRISHDA TA'LIM MUASSASALARI, OILA VA MAHALLA HAMKORLIGI HAQIDA

Imamov Navruz Pattaqulovich^{1,*}, Xaitova Farogat Akmaljon qizi² and Abduraufov Giyosiddin Shovqiddin ogli³

¹Samarqand iqtisodiyot va servis instituti Tillarni o'qitish kafedrasi katta o'qituvchisi and ²TM-324 guruh talabasi

*nimamov86@gmail.com

Abstract

Mazkur maqolada yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishda ta'lismuassasalari, oila va mahalla hamkorligining o'rni tahlil qilinadi. Yoshlarning jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati ta'kidlanib, zamonaviy bilim va ko'nikmalarini shakllantirish, ma'naviy tarbiyani mustahkamlash va jamoatchilik hayotida faol ishtirok etishga yo'naltirish masalalari ko'rib chiqiladi. Hamkorlikni mustahkamlash orqali huquqiy ongni rivojlantirish, ijtimoiy mas'uliyatni oshirish va yoshlarni jamiyatning faol a'zolariga aylantirish yo'llari tavsiya etiladi.

Key words: Foallik, faoliyat, yoshlarda ijtimoiy madaniyatni shakllantirish, siyosiy madaniyat, demokratik muhit, siyosiy mafkura.

Kirish

Jamiyat bilan doimiy munosabatni ushlab turuvchi, o'z-o'zini anglab, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos bo'lgan eng muhim va umumiy xususiyat bu uning faolligidir. Faollik (lotincha —actus — harakat, —activus — faol so'zlaridan kelib chiqqan tushuncha) shaxsnинг hayotdagi barcha xatti — harakatlarini namoyon etishini tushuntiruvchi kategoriyadir. Bu — o'sha oddiy qo'limizga qalam olib, biror chiziqcha tortish bilan bog'liq elementar harakatimizdan tortib, toki ijodiy uyg'onish paytlarimizda amalga oshiradigan mavhum fikrlashimizgacha bo'lgan murakkab harakatlarga aloqador ishlarimizni tushuntirib beradi. Shuning uchun ham shaxs, uning ongi va o'z-o'zini anglashi muammo-lari uning faolligi, u yoki bu faoliyat turlarida ishtiroki va uni ud-dalashi aloqador sifatlarini orqali bayon etiladi. Har qanday sharoitda ham barcha harakatlar ham ichki-shaxsiy, ham tashqi — ijtimoiy nuqtai nazaridan boshqarilib boriladi. Inson faolligi harakat, faoliyat, xulq tushunchalari bilan chambarchas bog'liq. Inson faolligini mujassamlashtiruvchi harakatlar jarayoni faoliyat deb yuritiladi. Ya'ni, faoliyat — inson ongi va tafakkuri bilan boshqariladigan, undagi turli-tuman ehtiyojlardan kelib chiqadigan, hamda tashqi olamni va o'z-o'zini o'zgartirish va takomillashtirishga qaratil-

gan o'ziga xos faollik shaklidir. Bugungi kunda Ozbekiston xalqi yangi demokratik jamiyat qurmoqda, uni rivojlantirishda manaviyat muhim jihatlardan biri hisoblanadi.

Yoshlarda ijtimoiy madaniyatini shakllantirish — ularga mustaqil davlat tuzilmasining xususiyatlari, mamlakatning xalqaro maydonda tutgan o'rni, vatanparvarlik va millatlararo do'stlik tuyg'ulari, respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish yo'lida amalga oshirilayotgan ijtimoiy harakatlar, mehnat an'analari, milлий istiqlol g'oyasi va mafkura asoslari haqidagi bilimlarni berish asosida ularda fuqarolik hissini zimmalaridagi burch va majburiyatlarni bajarishga nisbatan mas'uliyat, yot mafkuraviy qarashlarni anglash va unga qarshi bo'lish, ijtimoiy faollik va fidoyilik kabi sifatlarni mujassamlashtirgan yaxlit bir tarbiya jarayoni hisoblanadi. Fuqarolik jamiyatni institutlari — o'z-o'zini boshqarish organlari, nodavlat va jamoat tashkilotlarini mustahkamlash hamda rivojlantirish yoshlarning siyosiy-ijtimoiy madaniyatini, faolligini oshirishning muhim shartlaridan biridir. O'zbekistonda davlat qurilishi va fuqarolik jamiyatini erkinlashtirish, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tish vazifalarini amalga oshirishda har bir yoshning jamiyatda o'z o'rni bo'lishini bilish, eng muhim, o'zini jamiyatning ajralmas qismi deb, tushunishi ulkan ahamiyat

kasb etadi. Bu ijtimoiy faoliyotda erishishda mavjud demokratik institutlar, o'z-o'zini boshqarish organlari, partiylar, nodavlat va jamoat tashkilotlari muhim o'rinn tutadi. Ijtimoiy faoliyot kishi-larning ijtimoiy voqelikning biror bir sohasidagi fikrlari, his-tuyg'ulari va hatti-harakatlarini jamlashga jamiyat hayotiga baho berishga va shu asosda ijtimoiy voqelikning tegishli tomonlarini o'zgartirishga ta'sir ko'rsatadi. Siyosiy madaniyat - insонning ij-timoiy faoliyati, ijtimoiy takomil jarayonida shakllanadigan sifat. Uning ma'no-moqiyatini jamiyatdagi ustuvor munosabatlar, us-tuvor qonun-qoidalalar mohiyati belgilaydi. Boshqacha aytganda, siyosiy madaniyat muayyan shaxsnинг jamiyat tomonidan e'tirof etilgan ustuvor munosabatlar, an'ana va qadriyatlar hamda qonun-qoidalarga bo'y sunish darajasi, ular asosida o'z faoliyat ko'nikmasi, xarakter xususiyatlari, xillas, o'ziga xos insoniy qiyofasini shakl-lantira olishidir.

Jamiyat siyosiy hayotini tashkil etishda fuqarolarning siyosiy munosabatlarda ishtiroki, ularning siyosiy madaniyatni, siyosiy ongi, siyosiy qadriyatlarini, mentaliteti, milliy-madaniy meros orqali mujassamlashadi hamda jamiyatning tashkil etuvchi muhim jihatni hisoblanadi. Jamiyatning o'z-o'zini tashkil etishda. fuqarolarning siyosiy madaniyat hal qiluvchi omillardan hisoblanadi. Jamiyatning siyosiy madaniyatini yuksaltirishda milliy-ma'naviy qadriyatlar uning negizida yotadi va o'ziga xos tuzilishga ega bo'ladi. Siyosiy madaniyatdagi o'zgarishlar, yangi steriotiplar mamlakat siyosiy hayotiga ham o'zining ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Mahalliy faylasuf olim I.Saifnazarovning ta'kidlashicha, siyosiy fanlarda siyosiy madaniyatga erishishning asosiy shartlari sifatida quyidagi-lardan asoslanadi:

Birinchisi. Demokratik muhit. Demokratik muhitning mazmun-mohiyati nimadan iboratkigi haqida ozgina toxtilib o'tsak, Demokratik muhit - bir guruh yoki bir nechta guruh yoki bir nechta qatlamli jamoaning yagona qonun-qoidalalar asosida o'zaro kelishib, bir-birining insoniy sha'ni, haq-huquqiga ziyon yetkazmasdan yashashi. Demokratik muhit tarkibi bir qancha subyektlardan tashkil topadi: davlat, davlat idoralari, shaxs, oila, jamoat, jamoat muassasalari. Bu subyektlarning hammasi mana shu muhit doirasida qabul qilingan qonunlar asosida faoliyat yuritadi, bir-birini nazorat etadi, birbirining faoliyatini to'ldiradi.

Ikkinchisi. Erkinlik va majburiyat o'rtasidagi muvozanatning mavjudligi. Erkinlik va majburiyatni anglash fuqaroni ham, davlatni ham, jamoatchilikni ham faqat qonun doirasida harakat etishga undaydi. Natijada qonunlar faoliyat mezonini begilaydi-gan asosiy qadriyatga, huquqiy tafakkur esa siyosiy madaniyatning muhim bir omiliga aylanadi.

Uchinchisi. Jamiyatda ko'pfikrlik - plyurnalizmning asosiy ij-timoiy meyorga aylanishi. Ya'ni har bir fuqaro, har bir ijtimoiy-siyosiy kuch o'zi tanlagan e'tiqod, o'zi tanlagan yo'l, o'zi tanla-gan g'oyani targ'ib etish va jamiyat bag'rida kechayotgan jaray-onlarga erkin munosabat bildirish imkoniga ega bo'lmos' i zarur. Chunki fuqaro yoki muayyan ijtimoiy-siyosiy kuch o'z irodasi, dun-yoqarashini erkin ifoda etish imkoniga ega bo'lmasa, uning siyosiy sezgisi, siyosiy madaniyatni rivojanmaydi. Siyosiy madaniyat tiz-imli ravishda o'sib borishi jamiyatda nafaqat siyosiy ong va qarash-larning o'sib borishi, balki ishlab chiqarish, fan, ta'l'm, ijtimoiy integratsiyalashvning ham jadal o'sib borishiga tayanch lokomativ rolini bajarib beradi. Qolaversa, olim: "siyosiy madaniyat yuk-salmagan joyda esa ijtimoiy fikrda ham, milliy mafkurada ham, umumi taraqqiyotda ham olg'a siljish bo'lmaydi, deya uqtiradi. Siyosiy madaniyatni shakllantirishning yo'l va usullari bevosita ta'l'm-tarbiya bilan bogliq. Masalan, bola oiladayoq erkin, o'z fikrini mustaqil bayon eta oladigan qilib tarbiyalansa, u voyaga yet-ganidan keyin ham o'z fikrini dadil, mardona ayta oladigan bo'ladi. Bu jihatdan sobiq sovet davridagi ta'l'm tizimi bilan bugungi milliy ta'l'm tizimini qiyoslash o'rinni bo'ladi. Ma'lumki, sobiq sovet mak-tablarida bolaning erkin fikrlashiga yo'l qo'yilmas, o'qituvchining aytgani-aytgan, degani-degan edi. Shuning uchun oxir-ogibatda fikran boshqalarga qaram, o'zicha mustaqil bir ishni amalga oshirolmaydigan bolalar voyaga yetar edi. Shunga munosib ravishda

fuqarolarning ijtimoiy-siyosiy faoliyati ham o'ta sust edi. Ular o'zicha biror-bir tashabbus bilan chiqa olmas, hayolidagi o'fikrni erkin bayon eta olmas edi. Bu hol, tabiiyki, jamiyatdagi umumiy siyosiy madaniyat darajasiga ta'sir etardi. O'rni kelganda shuni ham ta'kidlash lozimki, aholining siyosiy madaniyatini yuksaltirish bilan bog'liq maqsadlar va vazifalar O'zbekiston ichki siyosatidagi eng dolzarb vazifalardan biri bo'lib kelgan. Bu borada davlat va jamiyat tomonidan zalvorli ishlar amalga oshirmoqda. Mahalliy soha olimi A.Haydarov: "Siyosiy madaniyat xalqning salohiyati namoyish etadigan qadriyatga aylanishi uchun milliy g'oya darkor. Milliy g'oya - mamlakat xalqini olg'a yetaklovchi ezgu fikrlar majmui. Milliy g'oya yada siyosiy madaniyatga xos xususiyatlar uning negizida yotadi. Bu milliy istiqlol g'oyasi tayanadigan milliy-ma'naviy qadriyatlar orqali jamiyatning siyosiy madaniyatining ham namoyon bo'lishida asosiy tayanch, negizi bo'lib hisoblanadi. Ularning maqsad va manfaatlarini birlashtirib turadigan bosh g'oya bo'ladi. Bu g'oya mamlakatda demokratik jamiyat ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot qurish maqsadlari bilan mushtarak bo'lib, siyosiy madaniyati yuqori bo'lgan har bir kishi o'z ish faoliyati, siyosiy institutlarga bo'lgan munosabati, o'z manfaatlari bilan boshqa ijtimoiy guruuhlar manfaatlarini uyg'un ko'rishi hamda muvofiqlashtirishda siyosiy madaniyati yaqqol namoyon bo'ladi", deydi. Siyosiy madaniyat, fuqarolarning siyosatni tushunishi, uni anglab yetishidagina emas, ko'proq unga bo'lgan munosabatda, amal qilish va amalga oshirishning tamoyillarida ularning fe'l-atvor ko'rinishlari, hatti-harakatlari meyorlarining siyosat bilan muvofiq kelish yoki kelmaslik holatlari orqali o'z ifodasini topadi. Bu o'rinda ham soha vakilining fikriga qo'shilish o'rinni, negaki, fuqarolarning siyosatni tushunish va uni qabul qilish holati jamiyatdagi mavjud tarbir-tamoyillar va siyosiy talablarga mos bo'lsa siyosiy madaniyatning amalga oshishi ham oson kechadi.

Yoshlarda manaviyatn shakllantiradigan muhim omil bu talim-tarbiya tizimidir. Ilmu-marifatga, talim-tarbiyaga inson kamoloti, millat ravnaqining asosiy sharti deb qarash lozim. Shu sababli makktab, yoshlarning talim-tarbiya masalasi davlat nazoratida ekanligi Konstitutsiyamizda belgilab qoyilgan.

Shu sabab yoshlar tarbiyası davlatimizning doimo diqqat markazida bolib, bu jarayon Mustaqillik yillarda uzlusiz davom etmoqda. Umuman mamlakatimizda qabul qilingan yoshlarga oid qonunlarning barchasida yoshlarimizning puxta bilim olishi bilan bir qatorda xalqaro maydonidagi faolligi va ishtirokini taminlash, voyaga yetmagan, boquvchisini yoqotgan, kop bolali oilalarni ijtimoiy-iqtisodiy tomonidan himoyalash, iqtidorli yosh-larni aniqlash va qollab-quvvatlash kabi masalalar doimiy nazorat ostida bolmoqda. Mamlakatimizda ota-ona mehridan, ularning tarbiyasidan mahrum bolgan va imkoniyati cheklangan bolalarga alohida etibor, mehr, gamxorlik korsatib kelinayotganligi etiborga molik. Mehribonlik uylari, makktab internatlarining va makktabgacha tarbiya muassasalarining moddiy-teknik bazasini bosqichma-bosqich mustahkamlash, oquv-tarbiyaviy jarayonini tubdan takomillashish masalalari belgilangan.

Ozbekistonning mustaqil rivojanishi yillarda odamlarning tafakkuri va dunyoqarashi ozgardi. Demokratik qadriyatlarni mustahkamlash, iqtisodiy va siyosiy hayotni liberallashtirish va jamiyatni yangilashda oz nuqtayi nazarini koradigan yangi avlod hayotga shakllanmoqda. Yangi jamiyat bunyodkorlari yoshlar tarbiyasida mahallaning va keng jamoatchilikning orni buyuk. Yosh yigit va qizlarimiz mustaqil hayotga kirib borishi, yosh oilalarning oz orinlarini topa olishida, kishilar ortasida mehr-oqibatning, birodarlikning tarkib topishida mahalla oqsoqollarini va nuroni otaxonlar, onaxonlarning tutgan orinlari muhimligini takidlash lozim. Yoslar manaviy tarbiyasida ota-ona masuliyati alohida orin tutadi. Insonning eng sof va pokiza tuygulari, ilk bor hayot togrisidagi tushunchalar, dunyoqarashlar, yaxshilik va ezgulik, olijanoblik va mehr-oqibat, or-nomus, andisha kabi inson uchun zarur bolgan muqaddas tushunchalar dastlab oilada qaror topa boshlaydi va songra jamoaga kochadi.

Yoshlarning manaviy ehtiyojlarini tolaroq qondirish uchun

talim-tarbiyaga xizmat qiladigan muhim vositalarni yangi sifat bosqichiga kotorish zarur boladi. Shu bilan birga bu sohalardagi mavjud katta-kichik kamchiliklar va nuqsonlarga tezlikda barham berish va bunday salbiy holatlardan qutilish lozim boladi.

Mamlakatimizda yoshlar manaviy tarbiyasida falsafiy, ijtimoiy, siyosiy va gumanitar fanlar ahamiyati beqiyos, shu sabab bu fanlar vakillari ozlarining ota masuliyatli vazifalarini bugungi kun talabi darajasida bajarishlari lozim boladi. Bu sohadagi darsliklar, oquv qollanmalari, adabiyotlarning hamda mutaxassislarning ham saviyasi yuqori bolishi talab etiladi. Yuqoridagilardan xulosa qilib aytish mumkinki, xalqimiz, eng avvalo yoshlarimiz manaviy olamini kuchaytirish va daxlsizligini asrash uchun doimo sergak, ogoh va hushyor bolishimiz, tahdidlarga qarshi chuqur oylangan, ilmiy uslubga asoslangan va uzluksiz davom etadigan manaviy tarbiyani olib borish lozim boladi.

Bugun siyosiy madaniyat jamiyat rivoji, fuqarolar manfaatlari va ijtimoiy-siyosiy faoliygini yuzaga chimgarishga qaratilgan bo'lib, bu jarayonda jamiyatda siyosiy mafkura ham o'ziga bo'lgan ahamiyat kasb etadi. Negaki, siyosiy mafkuraning amal qilish daramasi ijtimoiy-siyosiy faoliyatning tizimli va sohalar kesimida intenvis va integrativ ijtimoiy jarayonlarni rivojlantirishga ko'mak beradi. Bu xususda, ya'ni jamiyatda siyosiy madaniyat va siyosiy mafkuraning keng amal qilishini ta'minlash maqsadida quyidagi tavsiyalarni ham ilgari surish muhim bo'ladi: Birinchidan, aholining keng ommasi uchun ijtimoiy jarayonlarni tashabbuskorlari ni kengaytirish va fuqarolar mas'ulligini oshirishga qaratilgan «Ijtimoiy-siyosiy madaniyat kodeksi»ni ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etilishini yo'iga qo'yish; Ikkinchidan, umumta'lim muassasalari bitiruvchilari, professional ta'limga o'quvchilari va no-mutaxassislik oliy ta'limga muassasalari talabalari uchun siyosiy-ma'naviy madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-ommabop risolalarini tizimli ravishda muntazam nashr etib borish maqsadga muvofiq.

Adabiyotlar

1. Alieev B., Ergashev I. va boshq. Politologiya. – T.: TDIU, 2010. – B. 227–228.
2. Veber M. O burjuaznoy demokratii v Rossii. // Sotsiologicheskie issledovaniya. 1992. – №3. – S. 39.
3. Mallaeva E.M. Fuqarolar siyosiy madaniyatini rivojlantirishning mafkuraviy omillari. Siyo. fan. b.y. fal. dokt. (PhD) diss. avtoref. – T.: 2020. – B. 21.
4. Muhammadiev U.N. Ozbekistonda siyosiy madaniyat va milliy manaviyatning ozaro munosabati muammosi. Diss... siyo. fan. nom., – T.: 2002. – 104-b.
5. Odilqoriev X.T., Razzoqov D.X. Siyosatshunoslik. – T.: "Oqituvchi" NMIU, 2008. – B. 239
6. Yaxshibaev Sh. Siyosiy madaniyat va uning kontseptual-nazariy muammolari. <https://doi.org/10.5281/zenodo.7837383>. – B. 4
7. Umida K. The Role of Teaching Compounds According to Types of Speech in Constructivism // Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching. – 2022. – T. 8. – S. 4-9.
8. Umida K. The ways of using constructivism to teaching phraseological units and vocabulary for efl // Academicia Globe: Inderscience Research. – 2022. – T. 3. – №. 4. – S. 1-6. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/13>